

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BESHARIQ TUMANINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI

2024- YIL
YANVAR-SENTABR

BESHARIQ–2024


Qisqartma va shartli belgilar

| | |
|---------------------------------------|---|
| %. – foiz | 0,0 – katta bo‘lmagan miqdor |
| mlrd. – milliard | m. – marta |
| mln. – million | – – ko‘rsatkichning yo‘qligi |
| mln.AQSh doll. – million AQSh dollari | ga. – gektar |
| kv. – kvadrat | tn. – tonna |
| km. – kilometr | ¹⁾ , ²⁾ , ³⁾ – izohning mavjudligi |
| m. – metr | l. – litr |

MUNDARIJA

| Nomi | bet |
|--|--------------|
| TUMAN XARITASI VA ASOSIY KO‘RSATKICHLARI | 4-5 |
| I. BESHARIQ TUMANINING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI | 6-8 |
| Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar | 6-7 |
| Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aholi jon boshiga nisbati | 8 |
| II. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI | 9-13 |
| Korxonalar va tashkilotlarning umumiy tavsifi | 9-11 |
| Oilaviy korxonalar | 11-12 |
| Kichik tadbirkorlik subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) | 12 |
| Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar | 13 |
| Fermer xo‘jaliklari | 13 |
| III. SANOAT | 14-17 |
| Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish | 14-15 |
| Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik va kichik korxonalar | 16-17 |
| IV. XIZMATLAR | 18-21 |
| Xizmat ko‘rsatish hajmi | 18-20 |
| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ko‘rsatish | 20-21 |
| V. INVESTITSIYALAR VA QURILISH | 22-24 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 22-23 |
| Qurilish faoliyati | 24 |
| VI. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI | 25-30 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining tarkibi | 25 |
| Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari | 26-27 |
| Ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari | 28-30 |
| VII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI | 31-36 |
| Aholi soni | 31-33 |
| Nikohlar va ajralishlar | 34 |
| Aholining migratsiya ko‘rsatkichlari | 34-35 |
| Ijtimoiy ko‘rsatkichlar va o‘rtacha oylik ish haqi | 35-36 |
| VIII. ISTE‘MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT | 37-39 |
| Tashqi savdo aylanmasi | 37 |
| Eksport hajmi | 37 |
| Import hajmi | 38-39 |

Farg'ona viloyati
Beshariq tumanining
Xaritasi



**Beshariq tumani to'g'risida
umumiy ma'lumotlar**

| | |
|--|-------------------------|
| Viloyat | Farg'ona |
| Tuman | Beshariq |
| Markazi | Beshariq shahri |
| Tashkil topgan sanasi | 29.09.1926-yil |
| Umumiy maydoni, ming km² | 0,774 kv.km |
| Tumanga bo'ysinuvchi shaharlar | 10 ta |
| Mahalla fuqarolari yig'inlari soni | 62 ta |
| Aholi yashash punktlari soni | 96 ta |
| 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni, kishi | 245 904 |
| <i>sh.j.:</i> erkaklar | 124 755 |
| ayollar | 121 149 |
| Viloyat markazigacha bo'lgan masofa, km | 115,0 km |
| Chegaradosh Respublika | Tojikiston Respublikasi |
| Chegaradosh viloyat | - |
| Chegaradosh tumanlar | Furqat, O'zbekiston |

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Beshariq tumanining Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

| | Jami | | Aholi jon boshiga | |
|---|------------|--|-------------------|--|
| | mlrd. so'm | 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan %da | ming so'm | 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan %da |
| Sanoat | 955,6 | 107,4 | 3 910,4 | 105,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 2 186,7 | 104,0 | 8 947,9 | 102,2 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 263,2 | 54,1 | 1 077,0 | 53,1 |
| Qurilish ishlari | 193,6 | 143,3 | 792,1 | 140,6 |
| Chakana tovar aylanmasi | 713,9 | 108,0 | 2 921,0 | 106,0 |
| Jami xizmatlar | 596,4 | 112,1 | 2 440,4 | 110,0 |

Tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh doll.)

| | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Saldo |
|---------------------------------------|------------------------|---------|--------|-------|
| 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida | 25,3 | 11,5 | 13,8 | -2,2 |

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha

Beshariq tumanining Farg'ona viloyatidagi ulushi

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)


| | Hajmi, mlrd. So'm | 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan %da | Beshariq tumanining viloyatdagi ulushi, %da |
|--|-------------------|--|---|
| Sanoat | 955,6 | 107,4 | 3,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 2 186,7 | 104,0 | 7,2 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar | 263,2 | 54,1 | 1,6 |
| Qurilish ishlari | 193,6 | 143,3 | 1,7 |
| Chakana tovar aylanmasi | 713,9 | 108,0 | 3,2 |
| Jami xizmatlar | 596,4 | 112,1 | 1,6 |
| Tashqi savdo aylanmasi, ming AQSh. Doll. | 25 316,0 | 41,6 | 1,6 |
| Eksport, ming AQSh. Doll. | 11 547,9 | 93,1 | 1,8 |
| Import, ming AQSh. Doll. | 13 768,1 | 28,4 | 1,5 |

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

| | 2024- yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm | | |
|--|--------------------------------------|----------------------|--------------------|
| | O'zbekiston Respublikasi | Farg'ona viloyati | Beshariq tumani |
| Sanoat | 629 171,5 | 34 004,0 | 955,6 |
| o'sish sur'ati, %da | 107,0 | 108,3 | 107,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 323 878,0 | 30 373,9 | 2 186,7 |
| o'sish sur'ati, %da | 103,1 | 104,0 | 104,0 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar | 343 085,9 | 16 607,4 | 263,2 |
| o'sish sur'ati, %da | 131,0 | 108,0 | 54,1 |
| Qurilish ishlari | 167 101,2 | 11 240,2 | 193,6 |
| o'sish sur'ati, %da | 109,1 | 109,6 | 143,3 |
| Chakana tovar aylanmasi | 259 327,4 | 22 341,2 | 713,9 |
| o'sish sur'ati, %da | 109,2 | 108,2 | 108,0 |
| Jami xizmatlar | 564 777,7 | 37 731,7 | 596,4 |
| o'sish sur'ati, %da | 112,8 | 111,9 | 112,1 |
| Eksport, mln. AQSh. dollari | 19 773,8 | 627,3 | 11,5 |
| o'sish sur'ati, %da | 111,5 | 119,8 | 93,1 |
| Import, mln. AQSh. dollari | 28 432,4 | 942,1 | 13,8 |
| o'sish sur'ati, %da | 105,2 | 97,7 | 28,4 |

2024- yil yanvar-sentabr oylaridagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha Beshariq tumanining viloyatda tutgan o'rni



Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning aholi jon boshiga nisbati

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

| | Aholi jon boshiga, ming so'm | | |
|---|------------------------------|-------------------|-----------------|
| | O'zbekiston Respublikasi | Farg'ona viloyati | Beshariq tumani |
| Sanoat | 16 969,1 | 8 308,7 | 3 910,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 8 735,1 | 7 421,7 | 8 947,9 |
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 9 253,2 | 4 057,9 | 1 077,0 |
| Qurilish ishlari | 4 506,8 | 2 746,5 | 792,1 |
| Chakana tovar aylanmasi | 6 994,2 | 5 458,9 | 2 921,0 |
| Jami xizmatlar | 15 232,3 | 9 219,5 | 2 440,4 |
| Eksport, AQSh. Doll. | 529,3 | 153,3 | 47,3 |
| Import, AQSh. Doll. | 761,1 | 230,2 | 56,3 |

Beshariq tumanining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik biznes ulushi

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, % hisobida)

| Sanoat | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | Investitsiya | Qurilish ishlari | Chakana tovar aylanmasi | Jami xizmatlar | Eksport | Import |
|--------|--|--------------|------------------|-------------------------|----------------|---------|--------|
| 83,9 | 97,0 | 87,9 | 95,1 | 97,1 | 68,8 | 59,9 | 98,4 |

II. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy tavsifi


(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Korxonalar va tashkilotlar yagona registr ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 2 292 tani tashkil qilib, shundan 1 368 tasi yoki 59,7 %i faoliyat ko'rsatmoqda.

Yil boshidan jami 204 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, 70 ta korxonalar va tashkilotlar tugatilgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida tuman bo'yicha yangi tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 855 ta (37,3 %), sanoat 374 ta (16,3 %), boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish 515 ta (22,5 %), qurilish 117 ta (5,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 147 ta (6,4 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 109 ta (4,8 %) sohalariga to'g'ri keladi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ro‘yxatga olingan hamda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni


| Ko‘rsatkichlar | Ro‘yxatga olinganlar | | Faoliyat ko‘rsatayotganlar | |
|--|----------------------|----------------------|----------------------------|----------------------|
| | Birlik | yakunga nisbatan %da | birlik | yakunga nisbatan %da |
| Jami | 2 292 | 100,0 | 1 368 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 147 | 6,4 | 82 | 6,0 |
| Sanoat | 374 | 16,3 | 203 | 14,8 |
| Qurilish | 117 | 5,1 | 49 | 3,6 |
| Savdo | 855 | 37,3 | 461 | 33,7 |
| Tashish va saqlash | 75 | 3,3 | 42 | 3,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 109 | 4,8 | 49 | 3,6 |
| Axborot va aloqa | 30 | 1,3 | 10 | 0,7 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 70 | 3,1 | 59 | 4,3 |
| Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish | 515 | 22,5 | 413 | 30,2 |

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, %da



Faoliyat ko'rsatayotgan (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) korxonalar va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 1 368 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 169 taga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 33,7 % savdo, 14,8 % sanoat, 3,6 % qurilish, 3,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 6,0 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,1 % tashish va saqlash, 0,7 % axborot va aloqa, 4,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da



2024- yilning 1- oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning ulushi 59,7 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 40,3 %ni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024- yilning 1- oktabr holatiga Beshariq tumanida jami 327 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, faoliyat ko'rsatayotganlari esa 195 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 9 taga ko'paygani kuzatilgan.

| <i>Hududlar</i> | <i>Ro'yxatga olingan</i> | | <i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i> | |
|-----------------------|--------------------------|-----------------------|--------------------------------|-----------------------|
| | <i>01.10.2023-yil</i> | <i>01.10.2024-yil</i> | <i>01.10.2023-yil</i> | <i>01.10.2024-yil</i> |
| Farg'ona viloyati | 7 595 | 7 915 | 5 004 | 4 530 |
| Beshariq tumani | 318 | 327 | 211 | 195 |
| viloyatdagi ulushi, % | 4,2 | 4,1 | 4,2 | 4,3 |

Beshariq tumanida ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalarining viloyatda tutgan ulushi 4,1 %ga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,1 %ga kamaygan, mos ravishda faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining viloyatdagi ulushi 0,1 %ga ko'payib, 4,3 %ni tashkil etgan. Yil boshidan 18 ta oilaviy korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, ushbu vaqtgacha 12 ta oilaviy korxonalar tugatilgani kuzatish mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlari

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 974 tani tashkil etib, shundan 1 081 tasi yoki 54,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Yil boshidan 200 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lsa, 70 ta kichik tadbirkorlik subyekti esa tugatilgan.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

| <i>Ko'rsatkichlar</i> | <i>Ro'yxatga olinganlar</i> | | <i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i> | |
|--|-----------------------------|-----------------------------|-----------------------------------|-----------------------------|
| | <i>birlik</i> | <i>yakunga nisbatan %da</i> | <i>birlik</i> | <i>yakunga nisbatan %da</i> |
| Jami | 1 974 | 100,0 | 1 081 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 146 | 7,4 | 81 | 7,5 |
| Sanoat | 372 | 18,8 | 201 | 18,6 |
| Qurilish | 115 | 5,8 | 47 | 4,3 |
| Savdo | 855 | 43,3 | 461 | 42,6 |
| tashish va saqlash | 75 | 3,8 | 42 | 3,9 |
| yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 109 | 5,5 | 49 | 4,5 |
| axborot va aloqa | 30 | 1,5 | 10 | 0,9 |
| sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 56 | 2,8 | 46 | 4,3 |
| boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish | 216 | 10,9 | 144 | 13,3 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 855 ta (43,3 %i), sanoat 372 ta (18,8 %i), qurilish 115 ta (5,8 %i) hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatish 144 ta (13,3 %i) sohalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar


Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024- yilning 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 26 tani tashkil etib, 19 tasi faoliyat ko'rsatmoqda. Yil boshidan beri xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 3 tani tashkil etilgan bo'lib, hech qanday xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tugatilmagan.

| | <i>Ro'yxatga olingan</i> | | <i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i> | |
|-----------------------|--------------------------|-----------------------|--------------------------------|-----------------------|
| | <i>01.10.2023-yil</i> | <i>01.10.2024-yil</i> | <i>01.10.2023-yil</i> | <i>01.10.2024-yil</i> |
| Farg'ona viloyati | 646 | 792 | 445 | 476 |
| Beshariq tumani | 17 | 26 | 14 | 19 |
| viloyatdagi ulushi, % | 2,6 | 3,3 | 3,1 | 4,0 |

Fermer xo'jaliklari

2024- yil 1- oktabr holatiga tumanda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari soni 665 tani tashkil etadi. Jumladan, paxta va g'allachilik yo'nalishida 195 ta, sabzavot va polizchilik yo'nalishida 31 ta, bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishida 301 ta, chorvachilik yo'nalishida 46 ta (shundan parrandachilik yo'nalishida 4 ta), baliqchilik yo'nalishida 70 ta, va boshqa yo'nalishlarda 22 tani tashkil etadi. Yil boshidan 19 ta yangi fermer xo'jaliklari tashkil etilgan bo'lib, faoliyatini tugatgan fermer xo'jaliklari mavjud emas.

Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining yo'nalishlar bo'yicha tarkibiy bo'linishi %da



III. SANOAT


Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Beshariq tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 955,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 83,9 %i kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi (2024- yil yanvar-sentabr)

| Hududlar | Sanoat mahsuloti hajmi | | tarmoq korxonalarini | | hududiy korxonalar | |
|-----------------|------------------------|---------------------|----------------------|--------------|--------------------|--------------|
| | Hajm, mlrd. so'm | o'sish sur'ati % da | Hajm, mlrd. so'm | ulushi, % da | Hajm, mlrd. so'm | ulushi, % da |
| Beshariq tumani | 955,6 | 107,4 | 747,7 | 78,2 | 208,0 | 21,8 |

Sanoat mahsuloti hajmi va fizik hajm indeksi

■ 2023-yil yanvar-sentabr ■ 2024-yil yanvar-sentabr



Tumanda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda


| Ko'rsatkichlar | 2024- yil yanvar-sentabr |
|---|--------------------------|
| Sanoat korxonalarini, jami | 468 |
| - Yirik | 1 |
| - kichik korxonalar va mikrofirmalar | 467 |
| - sh.j. xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar | 11 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, %)

2023-yil yanvar-sentabr

2024-yil yanvar-sentabr



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 941,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 98,5 %ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7%ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar tomonidan 2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,0 mlrd.so'mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 %)ni tashkil etdi.

Yirik va kichik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmlari, mlrd.soʻmda

2024-yil yanvar-sentabr




Yirik va kichik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning jami hajmdagi ulushi, %da (2024- yilning yanvar-sentabr)




2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida tumandagi yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan 153,4 mlrd.soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan boʻlib, jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi 16,1% ni tashkil etadi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan esa 802,2 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan hamda bu jami hajmning 83,9% ni tashkil etadi.

Tarmoq va hududiy korxonalarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati



2024- yil yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 910,4 ming so'mni va sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi.

IV. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining ro‘lini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkononi beradi.

Beshariq tumanining xizmatlar hajmi o‘shish sur‘ati,

(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)



2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi 596,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 %ga, jami xizmatlarning aholi jon boshiga nisbati esa 2440,4 ming so‘mga to‘g‘ri keldi. Hisobot davridagi jami xizmatlar hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 68,8 %ni (o‘tgan yilning mos davrida 69,2 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining toifalari


(birlik)

| | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr |
|---|-----------------------------|-----------------------------|
| Xizmatlar sohasi korxonalari, jami | 1 146 | 1 034 |
| - yirik | 286 | 282 |
| - kichik korxonalar va mikrofirmalar | 860 | 752 |

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

(2024- yil yanvar-sentabr)

| Hududlar | Jami | | | Aholi jon boshiga | |
|-------------------|-----------|--|-------------------------------------|-------------------|--|
| | mlrd.so'm | 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan %da | jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da | ming so'm | 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan %da |
| Viloyat bo'yicha: | 37 731,7 | 111,9 | 100,0 | 9 219,5 | 109,6 |
| Beshariq tumani | 596,4 | 112,1 | 1,6 | 2 440,4 | 110,0 |



2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi 596,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 %ga to'g'ri keldi. Hisobot davridagi jami

xizmatlar hajmida yirik korxonalarining hajmi 185,8 mlrd.so‘mni (o‘tgan yilning mos davrida 113,4 %), mikrofirma va kichik korxonalarining hajmi 125,3 mlrd.so‘mni (o‘tgan yilning mos davrida 111,7 %) va yakka tartibdagi tadbirkorlarining hajmi 285,3 mlrd.so‘mni (o‘tgan yilning mos davrida 111,4 %)ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)


| Ko‘rsatkichlar | mlrd. so‘m | O‘shish sur‘ati, % da | Jamiga nisbatan % da |
|--|--------------|-----------------------|----------------------|
| Xizmatlar – jami | 596,4 | 112,1 | 100,0 |
| <i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i> | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 62,9 | 109,7 | 10,6 |
| moliyaviy xizmatlar | 120,4 | 139,3 | 20,2 |
| transport xizmatlari | 97,2 | 110,2 | 16,3 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 96,0 | 110,5 | 16,1 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 4,3 | 112,9 | 0,7 |
| savdo xizmatlari | 185,2 | 109,9 | 31,0 |
| ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 14,6 | 113,5 | 2,4 |
| ta‘lim sohasidagi xizmatlar | 18,7 | 111,6 | 3,1 |
| sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 13,7 | 54,8 | 2,3 |
| ijara xizmatlari | 13,0 | 107,5 | 2,2 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar | 20,1 | 111,3 | 3,4 |
| shaxsiy xizmatlar | 30,4 | 110,2 | 5,1 |
| me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 1,2 | 110,2 | 0,2 |
| boshqa xizmatlar | 14,7 | 103,5 | 2,5 |

Beshariq tumani bo‘yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (31,0 %), moliyaviy xizmatlar (20,2 %) va transport xizmatlari (16,3 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo‘lmagan ulush me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (0,7 %)da qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %

(2024- yil yanvar-sentabr oylari uchun)




2024- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi 596,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ga to'g'ri keldi.

Beshariq tumani bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (109,7 %), moliyaviy xizmatlar (139,3 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (110,2 %) turlarida qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (54,8 %) va boshqa xizmatlar (103,5 %) turlarida qayd etildi.

V. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 263,2 mlrd. so‘mni (20,9 mln.AQSh.doll.) yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 54,1 %ni tashkil qildi.



Hisobot davrida kiritilgan investitsiyalar Respublika byudjeti mablag‘lari 20,9 mlrd. so‘mi manbalari, 26,6 mlrd. so‘mi korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobiga, 105,2 mlrd. so‘mi aholining o‘z mablag‘lari, 107,1 mlrd. so‘mi chet el kreditlari va investitsiyalari hisobiga, 0,9 mlrd. so‘m suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasidan, 2,6 mlrd. so‘mi bank kreditlari (boshqa qarz mablag‘lari bilan) manbalari hisobiga to‘g‘ri keldi.




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmlarining 221,0 mlrd. so‘mi yoki 84,0 %i yangi qurilish ishlari yo‘nalishiga, 19,8 mlrd. so‘mi yoki 7,5 %i kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish yo‘nalishiga hamda 22,4 mlrd. so‘mi yoki 8,5 %i boshqa xarajatlarga to‘g‘ri keldi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlar

2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida Beshariq tumani bo'yicha 107,1 mlrd. so'm miqdoridagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 21,8 mlrd. so'mi yoki 8,3 %ini markazlashgan hamda 241,4 mlrd. so'mi yoki 91,7 %ini markazlashmagan investitsiyalar tashkil etdi.




Qurilish faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Beshariq tumanida jami 193,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 143,3 %ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari tarkibi, ulushi %da

(2024- yil yanvar-sentabr oylari)




Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar ulushi.

Qurilish ishlari hajmi mlrd. soʻm

(2024- yil yanvar-sentabr oylari)

Qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar hajmi.



2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida amalga oshirilgan qurilish ishlari yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, kapital taʼmirlash, joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat ishlari hisobiga toʻgʻri keladi.

2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida bajarilgan qurilish ishlari hajmining 96,6 %i kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan. 2024- yil 1-oktabr holatiga Beshariq tumanida 48 ta qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari mavjud.

Hisobot davrida viloyat boʻyicha bajarilgan qurilish ishlari hajmida Beshariq tumanining ulushi 1,7 %ni tashkil etadi.

VI. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 186,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,0 %ni tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Beshariq tumanini ulushi 7,2 %ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘sish sur‘atlari

(2024- yilning yanvar-sentabr oylarida)

| | mlrd. so‘m | o‘sish sura‘ti, % |
|--------------------------|-----------------|-------------------|
| Farg‘ona viloyati | 30 373,9 | 104,0 |
| Beshariq tumani | 2 186,7 | 104,0 |


2024- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 61,3 % dehqonchilik va 38,7 % chorvachilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)




Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 58,5 %i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 40,1 %i fermer xo‘jaliklariga, 1,4 %i qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

DEHQONCHILIK



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1 296,9 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 100,8 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,3 %ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xoʻjaliklar toifalarining ulushi



- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari
- Fermer xoʻjaliklari


Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xoʻjaliklarining salmogʻi yuqori boʻlmoqda, jumladan jami yetishtirilgan sabzavotning 68,1 %i, uzumning 98,6 %i va mevaning 50,9 %i ular hissasiga toʻgʻri keldi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr)

| | Barcha toifadagi xo'jaliklar Jami | | Shu jumladan: | | | | | |
|-------------------------------------|-----------------------------------|---------------------|----------------------|---------------------|--------------------------------|---------------------|--|---------------------|
| | | | Fermier xo'jaliklari | | Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da |
| Don-jami | 73 832,4 | 102,2 | 70 536,9 | 100,4 | 1 463,0 | 112,1 | 1 832,5 | 2,6 m. |
| shu jumladan: boshoqli don | 64 917,1 | 98,2 | 32 183,4 | 96,4 | 57,0 | - | 1 676,5 | 2,9 m. |
| shundan: bug'doy | 64 787,1 | 98,1 | 63 111,4 | 96,4 | - | - | 1 675,7 | 2,9 m. |
| Makkajo'xori don uchun sholi | 5 789,2 | 153,9 | 4 684,7 | 170,7 | 948,5 | 105,9 | 156,0 | 129,0 |
| Dukkakli don | 441,8 | 118,2 | 441,5 | 118,1 | 0,3 | - | - | - |
| Kartoshka | 2 639,3 | 131,8 | 2 182,3 | 137,3 | 457,0 | 111,6 | - | - |
| Sabzavotlar, jami | 19 701,1 | 102,6 | 716,7 | 273,5 | 18 984,4 | 100,2 | - | - |
| Poliz, jami | 67 907,0 | 114,7 | 21 642,2 | 158,8 | 46 114,8 | 101,2 | - | - |
| Mevalar, jami | 6 534,8 | 107,1 | 2 087,4 | 110,0 | 4 447,4 | 105,7 | - | - |
| Uzum | 27 552,0 | 107,4 | 13 517,2 | 116,2 | 14 030,0 | 100,0 | - | - |
| Paxta xom-ashyosi | 1 497,2 | 101,2 | 21,5 | 108,6 | 1 475,7 | 101,1 | - | - |
| | 10 127,5 | 58,0 | 10 127,5 | 58,1 | - | - | - | - |

Farg'ona viloyati bo'yicha 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida yetishtirilgan savzavot hajmi, % hisobida



2024- yilning yanvar-sentabr oylari davomida Beshariq tumanida 67 907,0 tonna savzavot yetishtirilgan bo'lib, Farg'ona viloyatida yetishtirilgan savzavot hajmidagi ulushi 7,2 %ni tashkil etdi. Savzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, savzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 67,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


CHORVACHILIK



Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 818,1 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 108,7 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,7 %ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jaliklar toifalarining ulushi




- - Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- - Dehqon va tomorqa xo'jaliklariga
- - Fermer xo'jaliklari

Xo'jaliklar toifalari bo'yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-sentabr oylari)

| | Barcha toifadagi xo'jaliklar Jami | | Shu jumladan: | | | | | |
|--------------------------------------|---|---------------------------|------------------------|---------------------------|--------------------------------------|---------------------------|---|---------------------------|
| | | | Fermar xo'jaliklari | | Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
| | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da | tonna | o'sish sur'ati, %da |
| Go'sht (tirik vaznda) | 6 615,8 | 104,2 | 347,5 | 113,7 | 5 807,1 | 111,5 | 461,2 | 55,3 |
| Sog'ib olingan sut | 74 168,1 | 104,2 | 2 180,6 | 144,5 | 71 864,8 | 103,3 | 122,7 | 115,5 |
| Olingan tuxum (ming dona) | 78 368,6 | 146,0 | 39 769,7 | 123,9 | 27 749,9 | 194,3 | 10849,0 | 148,5 |
| Qirqib olingan jun | 90,3 | 104,6 | 7,2 | 122,0 | 82,6 | 103,3 | 0,5 | 125,0 |
| Olingan qora ko'l teri | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Olingan asal | 85,2 | 111,1 | 5,2 | 577,8 | 79,9 | 105,4 | - | - |
| Ovlangan baliq | 1 207,2 | 125,6 | 636,7 | 155,0 | 165,9 | 106,6 | 404,6 | 102,5 |
| Pilla xom-ashyosi | 251,0 | 118,1 | 251,3 | 118,1 | - | - | - | - |
| | bosh | o'sish sur'ati, %da | bosh | o'sish sur'ati, %da | bosh | o'sish sur'ati, %da | bosh | o'sish sur'ati, %da |
| Yirik shoxli qoramollar | 89 066 | 102,3 | 2 753 | 104,8 | 86 121 | 102,2 | 192 | 181,1 |
| shundan, sigirlar | 32 686 | 100,7 | 1 279 | 109,4 | 31 353 | 100,4 | 54 | 100,0 |
| Qo'y va echkilar | 71 449 | 101,4 | 5 337 | 108,1 | 65 672 | 100,8 | 440 | 135,4 |
| Otlar | 1 013 | 103,8 | 237 | 110,7 | 776 | 101,8 | - | - |
| Cho'chqalar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Parrandalar | 1059176 | 96,5 | 497 028 | 101,8 | 360 693 | 98,8 | 201 455 | 82,3 |

Xo‘jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, % hisobida



■ - Fermer xo‘jaliklari

■ - Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari

■ - Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Umumiy bosh songa nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 96,7 %ni, fermer xo‘jaliklarida 3,1 %ni, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida 0,2 %ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 95,9 %ni, qo‘y va echkilar 91,9 %ni, parrandalar 34,1 %ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida Beshariq tumanida fermer xo‘jaliklar hajmlari

Fermer xo‘jaliklari. 2024- yilning yanvar-sentabr oylari davomida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 186,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 40,1 %ga yetdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 2 753 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 1 279 bosh sigir, 5 337 bosh qo‘y va echkilar, 237 bosh ot, 497 028 bosh parrandalar mavjud.

Beshariq tumanida faoliyat yuritayotgan barcha yo‘nalishdagi fermer xo‘jaliklari 1- oktabr holatiga soni 665 tani tashkil etadi.


VII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Beshariq tumanida 2024- yilning 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni 245 904 kishini tashkil qildi va yil boshidan 3 046 kishiga yoki 1,2 % ga ko'paydi.

Doimiy aholi soni

(2024- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)

| | <i>Jami aholi soni</i> | <i>shu jumladan:</i> | | <i>Jami aholi sonidan:</i> | |
|-----------------|------------------------|----------------------|----------------|----------------------------|------------------------|
| | | <i>erkaklar</i> | <i>ayollar</i> | <i>shahar aholisi</i> | <i>qishloq aholisi</i> |
| Viloyat | 4 123,6 | 2 081,2 | 2 042,4 | 2 344,0 | 1 779,6 |
| Beshariq tumani | 245,9 | 124,8 | 121,1 | 86,0 | 159,9 |
| ulushi, % | 6,0 | 6,0 | 5,9 | 3,7 | 9,0 |



Shuningdek, 2024- yilning 1- oktabr holatiga Beshariq tumanida 121,1 ming kishi ayollar va 124,8 ming kishini erkaklar tashkil etgan.

Asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlarning solishtirma tahlili

(2024- yil yanvar - sentabr oylarida)


| <i>Ko'rsatkich nomi</i> | <i>2024- yil yanvar-sentabr</i> | | |
|-------------------------------|---------------------------------|--------------------------|------------------------|
| | <i>O'zbekiston Respublikasi</i> | <i>Farg'ona viloyati</i> | <i>Beshariq tumani</i> |
| Doimiy aholi soni, ming kishi | 37 355,4 | 4 123,6 | 245,9 |
| shundan, shahar joylarda | 19 047,1 | 2 344,0 | 86,0 |
| qishloq joylarda | 18 308,3 | 1 779,6 | 159,9 |
| Tug'ilganlar soni, kishi | 693 897 | 77 481 | 4 262 |
| Vafot etganlar soni, kishi | 131 674 | 13 665 | 806 |
| Tuzilgan nikohlar soni, kishi | 179 395 | 19 302 | 908 |
| Ajrimlar soni, kishi | 33 984 | 3 598 | 188 |
| Ko'chib kelganlar soni, kishi | 186 813 | 9 888 | 124 |
| Ko'chib ketganlar soni, kishi | 193 451 | 11 568 | 534 |

2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

| | <i>kishi</i> | | | <i>har 1000 aholiga, nisbatan</i> | |
|---------------|--------------------------------|--------------------------------|-------------------------|-----------------------------------|--------------------------------|
| | <i>2023-yil yanvar-sentabr</i> | <i>2024-yil yanvar-sentabr</i> | <i>o'sish, kamayish</i> | <i>2023-yil yanvar-sentabr</i> | <i>2024-yil yanvar-sentabr</i> |
| Tug'ilganlar | 4 138 | 4 262 | 124 | 23,1 | 23,3 |
| O'lganlar | 822 | 806 | -16 | 4,6 | 4,4 |
| Tabiiy o'sish | 3 316 | 935 | -2 381 | 18,5 | 18,9 |
| Nikohlar | 1 019 | 908 | -111 | 5,7 | 5,0 |
| Ajralishlar | 198 | 188 | -10 | 1,1 | 1,1 |

2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida aholining tabiiy harakati

(kishi)



Tug'ilish darajasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 4 262 kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (4 138 kishi) nisbatan 124 kishiga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 23,3 promilleni tashkil qildi (2023- yilning shu davrida 23,1 promille).


O'lim darajasi. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 806 kishini tashkil etdi va 2023- yilning shu davriga (822 kishi) nisbatan 18 kishiga kamaygan. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil qildi (2023- yilning shu davrida 4,6 promille).

Tabiiy o'sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2024- yilning yanvar-sentabr holatiga tabiiy o'sish 935 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davri (3 316 kishi)ga nisbatan 2392 kishiga kamayganini kuzatishimiz mumkin.

Nikohlar va ajralishlar. 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlarida 908 ta nikohlar va 188 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Mingta aholiga nisbatan 5,0 nikoh (2023- yilning tegishli davrida 5,7) va ajralishlar 1,0 (2023- yilning tegishli davrida 1,1) to'g'ri keladi.

Nikohlar va ajralishlar

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida, kishi)




Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 124 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 534 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 410 kishiga (2023- yilning shu davrida minus 311 kishi) teng bo'ldi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)







| Hududlar | Kelganlar | | Ketganlar | | Migratsiya saldosi | |
|-----------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|--------------------------|
| | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr | 2023- yil yanvar-sentabr | 2024- yil yanvar-sentabr |
| Viloyat | 6 919 | 9 888 | 8 936 | 11 568 | -2 017 | -1 680 |
| Beshariq tumani | 194 | 124 | 505 | 534 | -311 | -410 |
| viloyatdagi ulushi, % | 2,8 | 1,3 | 5,7 | 4,6 | x | x |

2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(kishi)



Ijtimoiy ko'rsatkichlar

(2024- yil yanvar-sentabr oylarida)

| | |
|---|---|
| <p>Tug'ulganlar soni</p> <p> 4 262 nafar</p> <p>Tug'ulish koeffisienti 23,3 %</p> | <p>Vafot etganlar soni</p> <p> 806 nafar</p> <p>Vafot etish koeffisienti 4,4 %</p> |
| <p>Qayd etilgan nikohlar soni</p> <p> 908 ta</p> <p>Nikoh tuzish koeffisienti 5,0 %</p> | <p>Nikohdan ajralishlar soni</p> <p> 188 ta</p> <p>Nikohdan ajralish koeffisienti 1,0 %</p> |
| <p>Xorijdan ko'chib kelganlar soni</p> <p> 124 kishi</p> | <p>Xorijdan ko'chib ketganlar soni</p> <p> 534 kishi</p> |

O'rtacha oylik ish haqi. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 821,5 ming so'mni, Beshariq tumanida esa 2 814,1 ming so'mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2024- yil yanvar-sentabr oyi uchun Farg‘ona viloyati bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

| | 2023- yil yanvar- sentabr | 2024- yil yanvar- sentabr | O‘shish sur‘ati, % |
|--------------------------|---------------------------------|---------------------------------|-----------------------|
| | | | <i>ming so‘m</i> |
| Farg‘ona viloyati | 3 347,1 | 3 821,5 | 114,2 |
| Farg‘ona shahri | 4 698,2 | 5 200,3 | 110,7 |
| Qo‘qon shahri | 3 845,3 | 4 390,6 | 114,2 |
| Quvasoy shahri | 3 303,7 | 3 972,0 | 120,2 |
| Marg‘ilon shahri | 2 760,5 | 3 163,3 | 114,6 |
| Oltiariq tumani | 2 263,8 | 2 808,9 | 124,1 |
| Qo‘shitepa tumani | 2 792,9 | 3 290,2 | 117,8 |
| Bag‘dod tumani | 2 769,5 | 3 024,2 | 109,2 |
| Buvayda tumani | 2 699,1 | 3 186,7 | 118,1 |
| Beshariq tumani | 2 502,2 | 2 814,1 | 112,5 |
| Quva tumani | 2 541,7 | 2 765,4 | 108,8 |
| Uchko‘prik | 2 589,6 | 3 527,7 | 136,2 |
| Rishton tumani | 2 486,9 | 2 887,5 | 116,1 |
| So‘x tumani | 2 742,2 | 3 125,7 | 114,0 |
| Toshloq tumani | 3 563,1 | 4 118,7 | 115,6 |
| O‘zbekiston tumani | 2 666,2 | 3 122,7 | 117,1 |
| Farg‘ona tumani | 2 591,8 | 2 793,2 | 107,8 |
| Dang‘ara tumani | 2 692,8 | 3 055,7 | 113,5 |
| Furqat tumani | 2 822,4 | 3 017,6 | 106,9 |
| Yozyovon tumani | 2 803,7 | 3 107,1 | 110,8 |

VIII. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT


Joriy yilning yanvar- sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 713,9 mlrd. so'mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 108,0 %ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida 20,8 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi 2,9 % ga teng bo'ldi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 489,8 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 68,6 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 203,3 mlrd. so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 28,5 % ga teng bo'ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda

(2024- yilning yanvar- sentabr holatiga)



Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha tumanning viloyatdagi ulushi

(2024- yil 1- oktabr holatiga, mln. AQSh dollarida)


| | Tashqi savdo aylanmasi hajmi | shu jumladan: | |
|-----------------|------------------------------|---------------|--------------|
| | | Eksport hajmi | Import hajmi |
| Viloyat | 1 569,5 | 627,3 | 942,1 |
| Beshariq tumani | 25,3 | 11,5 | 13,8 |
| ulushi, % | 1,6 | 1,8 | 1,5 |

Beshariq tumanining 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida tashqi savdo aylanmasi 25,3 mln. AQSh. dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga (60,8 mln. AQSh doll.) nisbatan 35,5 mln. AQSh dollarga kamaygan.

Eksport hajmi

Beshariq tumani bo'yicha 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida 20 ta korxonadan jami 11 547,9 ming AQSh. dollari qiymatidagi mahsulotlar (tovar, xizmatlar) xorijiy davlatlarga eksport qilingan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga (12,4 mln. AQSh. dollari) nisbatan 93,1 %ni tashkil etgan.


2024- yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatidagi shahar va tumanlar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmlari (hududi aniqlanmagan va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmlaridan tashqari), mln. AQSh dollarida



Import hajmi

Beshariq tumani bo'yicha 2024- yil yanvar-sentabr oylari davomida 32 ta korxonalar tomonidan jami 13,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlar (tovar, xizmatlar) xorijiy davlatlardan import qilingan bo'lib, import hajmi o'tgan yilning mos davrida (48,4 mln. AQSh dollari) nisbatan 28,4 %ni tashkil etgan.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatidagi shahar va tumanlar tomonidan amalga oshirilgan import hajmlari (hududi aniqlanmagan va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan import hajmlaridan tashqari), mln. AQSh dollarida



Hisobot davrida xorijiy davlatlardan import qilingan 13 768,1 ming AQSh dollari qiymatidagi mahsulotlar (tovar, xizmatlar) ning 2 365,6 ming AQSh dollari yoki 17,2 %i mashina va transport asbob-uskunalari hisobiga, 3 759,5 ming AQSh dollari yoki 27,3 %i sanoat tovarlari hisobiga, 565,7 ming AQSh dollari yoki 4,1 %i kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hisobiga, 92,9 ming AQSh dollari yoki 0,7%i mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar hisobiga hamda 5 827,0 ming AQSh dollari yoki 42,3 %i oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hisobiga, 8,4 %i boshqa mahsulotlar hisobiga to'g'ri keldi.

**BESHARIQ TUMANINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI
2024- YIL YANVAR-SENTABR**

*Nashrga mas'ul:
Beshariq tumani statistika bo'limi
telefon: (73) 612-10-09*

Beshariq tumani statistika bo'limi
Beshariq tumani Oltin vodiy ko'chasi 43- uy

www.farstat.uz